

Har bir umumxalq bayrami uchun alohida ta'sirchan g'oyaviy

MAVZULAR

№	Umumxalq bayramlar	Mavzular
1	XOTIN-QIZLAR BAYRAMI (8-mart)	<p>1. Ayol – jamiyat tayanchi va milliy qadriyatlar timsoli Milliy an'analarda ayol oila muhitining saqlovchisi va mehr-oqibat targ'ibotchisi sifatida e'zozlanadi. Bayram ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va fidoyiligini keng targ'ib etishga xizmat qiladi.</p> <p>2. Ona siymosi – milliy tarbiya va ma'naviyat manbai Farzand tarbiyasida onaning o'rni milliy urf-odatlar, axloqiy me'yorlar va hayotiy qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy omildir. Ona mehrini ulug'lash jamiyatda insonparvarlik g'oyalarini kuchaytiradi.</p> <p>4. Zamonaviy ayol obrazi: an'ana va yangilik uyg'unligi Zamonaviy o'zbek ayoli milliy an'ana va urf-odatlarga sodiq holda ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmoqda. Milliylik va zamonaviylik uyg'unligi ayol timsolida yaqqol namoyon bo'ladi.</p> <p>5. Ayolga e'tibor –ma'naviy yuksalishning mezoni Ayolga hurmat va e'tibor jamiyatning ma'naviy saviyasini belgilovchi muhim ko'rsatkichdir. Bayram orqali ayollarga nisbatan ehtirom, ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari targ'ib etiladi.</p>
2.	NAVRO'Z BAYRAMI (21-mart)	<p>1. Navro'z — yangilanish, poklanish va ezgulik ayyomi Ajdodlarimiz Navro'zni mehr, kechirim va yangilanish ayyomi sifatida nishonlab kelgan. Bayram orqali tabiatga ehtiyotkorlik, hayotga shukronalik tuyg'usi avlodlarga singdiriladi.</p> <p>2. Navro'z — ming yillik xotira va milliy o'zlik tantanasi Ushbu bayramda urf-odatlar, marosimlar va qadimiy an'analar o'zining asl qiyofasini saqlab qolgan. Navro'z orqali avlodlar o'rtasidagi ma'naviy rishtalar mustahkamlanadi.</p> <p>3. Navro'z — mehr-oqibat va insonparvarlik bayrami Navro'z — dillar yaqinlashadigan, qalblar birlashadigan ayyomdir. Bayram jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik va mehr muhitini mustahkamlaydi.</p>

		<p>4.Navro'z — oila va mahalla birdamligi timsoli Navro'z oilalarni bir dasturxon atrofida jamlaydigan muqaddas bayramdir. Ushbu bayram orqali bag'rikenglik, mehr-oqibat, qo'ni-qo'shnicilik va saxovat qadriyatlari avloddan-avlodga uzatiladi.</p> <p>5. Navro'z — milliy madaniyat va san'atning jonli sahnasi Navro'z xalq og'zaki ijodi, musiqa, raqs va milliy liboslar bayramidir. Bayram milliy estetik didni yuksaltiradi, madaniy merosni asrashga chorlaydi.</p>
3.	<p>XOTIRA VA QADRLASH KUNI (9-may)</p>	<p>1. Tinchlik qadri — fidoyilar jasorati bilan o'lchanadi. Xotira — o'tmishni eslash emas, balki undan saboq olish demakdir. Tinchlikni qadrlash — uni muhofaza qilish mas'uliyatini anglash demakdir. Xotira va qadrlash kunini nishonlash orqali ajdodlar jasorati, fidoyiligi va sabr-matonati e'zozlanadi. Har bir fuqaro o'z mehnati va sadoqati bilan yurt osoyishtaligiga hissa qo'shishi lozim.</p> <p>2. Inson qadri — yuksak e'tibor va ehtirom mezoni Xotira va qadrlash kuni inson hayotining muqaddasligini e'tirof etadi. Keksalar, faxriylar, hayot sinovlarini boshdan kechirganlar eng katta ehtiromga loyiq. Har bir inson hayoti va jasorati — millat tarixi sahifasining bir bo'lagidir. Bu bayram orqali mehr-shafqat va insoniylik tuyg'ulari mustahkamlanadi.</p> <p>3. Tarixiy xotira - milliy o'zlikni saqlash omili Avlodlar o'rtasidagi xotira — millat bardavomligining kafolatidir.Tarixni unutgan millat kelajagini mustahkam qura olmaydi. Xotira tadbirlari — yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Bayram tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'naviy maktab vazifasini o'taydi.</p> <p>4. Xotira — muqaddas, qadrlash — insoniy burch Xotira — millatning ma'naviy ustuni, tarixiy tajribasi va ibrat maktabidir. Vatan ozodligi va tinchligi yo'lida jonini fido qilgan ajdodlar xotirasi — abadiy ehtiromga sazovor. Qadrlash — faqat bayram emas, balki doimiy ma'naviy mas'uliyatdir.</p>

4.	MUSTAQILLIK BAYRAMI (1-sentabr)	<p>1. “Mustaqillik – millat qudrati, Vatan ravnaqi – xalq irodasi!” Mustaqillik — davlat qudratining mustahkam poydevori. Vatan taraqqiyoti xalqning birdam irodasiga tayanadi. Erkinlikni asrash — har bir avlodning muqaddas burchi.</p> <p>2. Yangi O‘zbekiston — mustaqillik samarasi Yangi O‘zbekiston — erkinlik va islohotlar mevasidir. So‘nggi yillardagi islohotlar mustaqillik poydevorida barpo etildi. Inson qadri va manfaati — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zamonaviy infratuzilma, ta‘lim va iqtisodiy imkoniyatlar — 35 yillik taraqqiyot natijasi.</p> <p>3. Mustaqillik — milliy o‘zlik va ma’naviy tiklanish manbai Milliy g‘urur va iftixor mustaqil jamiyatda yuksaladi. Mustaqillik tufayli milliy an‘analar, urf-odatlar va qadriyatlar qayta jonlandi. Til, tarix va meros — millat o‘zligining asosiy ustunlaridir.</p> <p>4. Yagona Vatan, yagona xalq, buyuk kelajak! Yagona Vatan — barchamizni birlashtiruvchi muqaddas makon.</p> <p>5. Bizni birlashtirgan – Vatan, bizni yuksaltirgan – Mustaqillik! Vatan muhabbati — millatni jipslashtiradi. Erkinlik tufayli yuksalish sari ishonchli qadam tashlandi.</p> <p>6. 35 yil — faxrimiz va buyuk marralar sari qat‘iyatimiz! 35 yil — yutuqlar sarhisobi va yangi marralar boshlanishi. Mustaqillik faqat o‘tmish emas, balki doimiy harakat jarayonidir.</p> <p>7. Mustaqillik – sharafimiz, birdamlik – kuchimiz, kelajak – qo‘limizda! Mustaqillik — millat sha‘ni va iftixori. Birdamlik — davlat qudratining asosi. Kelajakni yaratish — bugungi sa‘y-harakatga bog‘liq. Har bir fuqaro taraqqiyot jarayonining faol ishtirokchisidir.</p>
5.	O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI (1-oktyabr)	<p>1. O‘qituvchi — millat ma’naviyati me‘mori O‘qituvchi — jamiyat tafakkurini shakllantiruvchi buyuk shaxs. Ilm va ma‘rifatga asoslangan jamiyat barqaror taraqqiy etadi. O‘qituvchini ulug‘lash — kelajakni ulug‘lash demakdir.</p> <p>2. Ustozga ehtirom — ma’naviyatga sadoqat Milliy tarbiya, urf-odat va ma’naviy qadriyatlar avvalo ustoz orqali avlodlarga o‘tadi. Ma’naviyatli jamiyat — ustozlari ulug‘langan jamiyatdir.</p>

		<p>3. Ustoz — ibrat va ma'naviyat timsoli.</p> <p>Ma'naviy poklik va halollik — pedagog faoliyatining asosiy mezoni. O'qituvchi shaxsiy namunasi bilan tarbiya beradi. Ustozning bir og'iz nasihati — inson taqdirini o'zgartirishi mumkin. Murabbiyning mehri va e'tibori — yosh qalblar uchun eng katta quvvat.</p>
6.	<p>KONSTITUSIYA KUNI (8-dekabr)</p>	<p>1. Konstitutsiya – inson qadrini ta'minlovchi oliy huquqiy kafolat</p> <p>Konstitutsiya faqat hujjat emas, balki xalqning iroda va orzularini ifoda etuvchi ramz. Har bir fuqaro uchun Konstitutsiya qonuniy huquq va erkinliklarni ta'minlaydi</p> <p>2. Ma'naviyat va adolat — Konstitutsiya ko'zgusi</p> <p>Konstitutsiya xalq ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarining qonuniy ifodasi. O'z huquq va burchlarini anglagan fuqaro — barqaror jamiyatning asosidir.</p>
7.	<p>HAYIT AYYOMLARI (RAMAZON HAYITI, QURBON HAYIT)</p>	<p>1. Hayit va mehr-oqibat - ijtimoiy birdamlikning ma'naviy asosi</p> <p>Hayit xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini yuksaltiruvchi muhim bayramdir. Ushbu bayram orqali mehr-shafqat, muruvvat va ehtiyojmandlarga g'amxo'rlik qadriyatlari targ'ib etiladi.</p> <p>2. Oila va jamiyatda hayit qadriyatlari: totuvlik va bag'rikenglik</p> <p>Hayit bayrami oilaviy rishtalarni mustahkamlaydi, milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligini aks ettiradi.</p>